

**Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi fakulteti**  
**“Parranda, baliq, asalari va mo‘ynali hayvonlar kasalliklari” kafedrası**  
**assistenti J.M.Sattorovning Baliq va asalari kasalliklari fanidan**  
**“Asalarilarning invazion kasalliklari” mavzusida tayyorlagan ochiq ma‘ruza**  
**darsi ishlanmasiga**

**TAQRIZ**

Mamlakatimizda baliqchilik va asalarichilikni rivojlantirishga boshqa sohalar kabi katta e‘tibor qaratilmoqda. Tarmoqda baliqchilik va asalarichilik tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, tarmoqda naslchilik ishlari samaradorligini oshirish, kasalliklarini davolash va oldini olish usullari mamlakatimizning barcha xududlarida tadbıq etib kelinmoqda.

Ammo bu sohalarining rivojlanishiga ularning sonini kamaytiruvchi, qirilib ketishiga sabab bo‘layotgan, mahsuldorligini pasayishiga olib keluvchi bir qancha sabablar uchramoqda. Shunday muammolarni inobatga olib bu sohani chuqur o‘rganish muhimdir.

Asalarichilikning rivojlanishiga nozematoz, varroatoz, akarapidoz, braulyoz kabi invazion kasalliklar to‘sqinlik qilmoqda. Shunday muammolarni inobatga olib bu sohani chuqur o‘rganish muhim hisoblanadi.

Assistent J.Sattorov tomonidan tayyorlangan ushbu mashg‘ulot matni yangi pedagogik texnologiyalar bo‘yicha taqdimot qilingan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri tanlangan. Dastlab mashg‘ulotning maqsadi va rejalari, ma‘ruza mashg‘ulotining o‘qitish pedagogik texnologiyasi berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan.

Taqdimotda talabalar asalarilarning invazion kasalliklari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘ladi, aniq ma‘lumot asosida ushbu invazion kasalliklarni epizootologiyasi, klinik belgilari, davolash va oldini olish usullari haqida to‘liq ma‘lumot oladi.

Ma‘ruza matni ishlanmasida asalarilarning nozematoz, varroatoz, akarapidoz, braulyoz kasalliklari, ularni aniqlash, davolash, oldini olish va qarshi kurash usullarini aniqlash. Ma‘ruza dars savollari, maqsadi vazifasi va aqliy hujum, test savollari berilgan. Shuningdek darsda to‘liq taqdimotdan foydalanilgan hamda adabiyotlar ro‘yhati bilan ta‘minlangan.

Assistent J.Sattorov tomonidan tayyorlangan “Asalarilarning invazion kasalliklari” mavzusidagi ma‘ruza mashg‘ulot darsi ishlanmasi hozirgi zamon ta‘lim texnologiyalari talablariga to‘liq javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**VITI “Parranda, quyon, baliq va asalari kasalliklari laboratoriyasi mudiri, v.f.f.d., kat.i.x.**



*Handwritten signature*

**Sh.K.Baliyev**

**Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi fakulteti  
“Parranda, baliq, asalari va mo‘ynali hayvonlar kasalliklari”  
kafedrasi assistenti J.M.Sattorovning Baliq va asalari kasalliklari  
fanidan “Asalarilarning invazion kasalliklari” mavzusida tayyorlagan  
ochiq ma’ruza darsi ishlanmasiga**

**TAQRIZ**

Asalarichilikda Respublikamizda boshqa sohalar kabi katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan Prezidentimizning 2017 yil 16 oktyabrdagi PQ-3327 sonli “Respublikamizda asalarichilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori Respublikamizda ushbu tarmoqni yanada rivojlantirishga qaratilgan dasturamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Asalarichilikning rivojlanishiga nozematoz, varroatoz, akarapidoz, braulyoz kabi invazion kasalliklar to‘sqinlik qilmoqda. Shunday muammolarni inobatga olib bu sohani chuqur o‘rganish muhim hisoblanadi.

Assistent J.Sattorov tomonidan tayyorlangan ushbu mashg‘ulot matni yangi pedagogik texnologiyalar bo‘yicha taqdimot qilingan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri tanlangan. Dastlab mashg‘ulotning maqsadi va rejalari, ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitish pedagogik texnologiyasi berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan.

Taqdimotda talabalar asalarilarning invazion kasalliklari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘ladi, aniq ma’lumot asosida ushbu invazion kasalliklarning epizootologiyasi, tarqalishi, davolash va oldini olish usullari haqida to‘liq ma’lumot oladi.

Ma’ruza matni ishlanmasida asalarilarning nozematoz, varroatoz, akarapidoz, braulyoz kasalliklari, ularni aniqlash, davolash, oldini olish va qarshi kurash usullarini aniqlash. Ma’ruza dars savollari, maqsadi vazifasi va aqliy hujum, test savollari berilgan. Shuningdek darsda to‘liq taqdimotdan foydalanilgan hamda adabiyotlar ro‘yhati bilan ta’minlangan.

J.M.Sattorov tomonidan tayyorlangan “Asalarilarning invazion kasalliklari” mavzusidagi ma’ruza mashg‘ulot darsi ishlanmasi hozirgi zamon ta’lim texnologiyalari talablariga to‘liq javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**SamDVMChBU “Parazitologiya va  
veterinariya ishini tashkil  
etish” kafedrasi v.f.b.f.d.**



**B.S.Rustamov**